

Y.E. ALIYEV

IQTISODIY XAVFSIZLIK



338 (04)

A 45

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Y. E. ALIYEV

IQTISODIY XAVFSIZLIK

(Darslik)



TOSHKENT – 2023

UO'K: 330.13.131.7

KBK 65.2/4-65.9

A 20

Y.E. Aliyev. Iqtisodiy xavfsizlik. (Darslik). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023, 448 b.

ISBN 978-9910-735-60-8

Mazkur darslik talabalarda "Iqtisodiy xavfsizlik" fani mazmuni, unda shaxs, korxona va davlatning iqtisodiy xavfsizligi, uning asosiy ko'rsatkichlari, mezonlari va yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tahlilali chegeralari haqida birlamchi tasavvurlarni shakllantiradi. Darslikda O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy, oziq-ovqat, transport va axborot xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi tahdidlar, globallashuv jarayonlarini, terrorizmni, xufyona iqtisodiyotni mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri, korrupsiyaga qarshi kurashning nazariy va metodologik asoslarini yoritishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 330.13.131.7

KBK 65.2/4-65.9

Taqrizchilar:

S.P. Umarov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

B.O. Tursunov – iqtisodiyot fanlari doktori.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023 yil 14 iyuldagi 228-son buyrug'iga asosan nashr qilindi

ISBN 978-9910-735-60-8

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Qadimgi davrlardan boshlab insoniyatni xavfsizlik masalasi qiynab kelgan. Inson hayoti o'ziga xos ko'pqirrali jihatlariga ega bo'lib, inson ularning har birida o'zini to'la himoyalangandek his qilishni xohlaydi. Har qanday jamiyat hayot faoliyatining asosini barqarorlik mezonlari bo'lgan uy-joy xavfsizligi, qarindosh urug'larning xavfsizligi, iqtisodiy faoliyatning xavfsizligi va qonuniyligi, jamg'armalar xavfsizligini ta'minlash tashkil etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlik nafaqat butun bir davlatga, shu bilan birga, alohida olganda har bir insonga bog'liq. Iqtisodiyotdagi nobarqarorlik va tanazzul holatlar har bir oilaga salbiy ta'sir etadi. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning eng muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Insonlarning hayot faoliyatlaridagi barqarorlik ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi barqarorlikka bog'liq bo'ladi. Demak, makro darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, xavfsizlikning barcha tizimini asosiy elementi sifatida yuzaga chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga solish darajasi qanchalik rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda qator muammolar bor. Bu muammolarni davlatning aralashuvisiz bozor iqtisodiyoti mustaqil ravishda hal eta olmaydi. Shuning uchun ham ilmiy asoslangan, samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun, iqtisodiy xavfsizlikning umumiy iqtisodiy qonuniyatlarini, tahdid va tavakkalchiliklarini bilish hamda shu bilan birga uning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi qator tahdidlarni bartaraf etish zaruriyati, mamlakat hududlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash usullari va instrumentlarini chuqur nazariy tadqiq etishni hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yangi tahdidlarni paydo bo'lishini oldini olish maqsadida davlatning chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim.

O'quv qo'llanma o'n yetti bobdan iborat bo'lib, unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy va metodologik asoslari hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini takomillashtirish qonuniyatlari, uning alohida uslublari va instrumentlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Alohida misollar, statistik va ekspert tahlillar asosida mamlakat va uning mintaqalariga tahdidlar hamda